

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхуджаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Узакова Зарина КУЛЬТУРА БЕЗОПАСНОСТИ В АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ: СОЦИАЛЬНО-ИНЖЕНЕРНЫЙ ПОДХОД.....	4
2. Ernazarov Behzod MUQADDAS QADRIYATLARNING O‘ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI.....	12
3. Nematova Dilfuza QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY XIMOYA MASALALARI.....	21
4. Kayumov Kaxramon ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	28
5. Ibragimov Murodjon JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI.....	36
6. Dulanboeva Oygul G‘ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI.....	43
7. Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	51
8. Ziyayeva Xolida ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	58
9. Азизова Нодира СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕРЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН.....	64
10. Nodira Alimukhammedova PROBLEMS OF NATIONAL IDENTITY.....	71
11. Vyatkina Yuliya, Burakanova Galiya, Axmedova Feruza QOZOG‘ISTON YOSHLARINING NAMOYISHKORONA ISTE‘MOLIGA TA‘SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR.....	78
12. Убайдуллаева Р.Т. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ МОЛОДЕЖИ.....	86

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Ziyayeva Xolida

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchisi,

sots.f. b.f.d (PhD)

e-mail: ziyayevaxolida@gmail.com

ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10473391>

ANNOTATSIYA

Maqolada zo'rvonlikka uchragan shaxslarni rehabilitatsiya qilish sotsiologik tahlili qilingan. Rehabilitatsiyaning tushunchalarini ilmiy jihatlardan ko'rib chiqib, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, psixologik kabi turlari, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik fenomenlari tahlil qilingan. Ijtimoiy rehabilitatsiyaning asosiy tamoyillari, ijtimoiy rehabilitatsiya jarayonining yo'nalishlari shuningdek bosqichlari tizimli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, individual yordam, zo'rvonlik, rehabilitatsiya, ijtimoiy rehabilitatsiya, psixoterapevtik yordam, maslahat, korreksiya, atrof-muhit terapiyasi, bandlik terapiyasi, ekspert baholash.

Зияева Холида

И.о.доц. Национального университета Узбекистана

доктор философии по социологии, PhD

e-mail: ziyayevaxolida@gmail.com

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕАБИЛИТАЦИИ ЛИЦ, ПОДВЕРГШИХСЯ НАСИЛИЮ

АННОТАЦИЯ

В статье представлен социологический анализ реабилитации жертв насилия. Рассматривая научные концепции реабилитации, были проанализированы экономические, социальные, правовые, психологические типы, а также социально-психологические и социально-педагогические аспекты этого явления. В работе систематически анализируются основные принципы социальной реабилитации, направления и этапы процесса социальной реабилитации.

Ключевые слова: социальная защита, индивидуальная помощь, насилие, реабилитация, социальная реабилитация, психотерапевтическая помощь, консультирование, коррекция, средовая терапия, трудовая терапия, экспертная оценка.

Ziyayeva Holid

Associate Professor National University of Uzbekistan

doctor of philosophy and sociology, PhD

e-mail: ziyayevaxolida@gmail.com

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF REHABILITATION OF VIOLENCE PERSONS**ABSTRACT**

The article presents a sociological analysis of the rehabilitation of victims of violence. Considering the concepts of rehabilitation from scientific aspects, economic, social, legal, psychological types, socio-psychological and socio-pedagogical phenomena were analyzed. The main principles of social rehabilitation, the directions and stages of the social rehabilitation process are systematically analyzed.

Key words: social protection, individual assistance, violence, rehabilitation, social rehabilitation, psychotherapeutic assistance, counseling, correction, environmental therapy, employment therapy, expert assessment.

KIRISH

Davlat va jamiyatni demokratlashtirish yoʻnalishida amalga oshirilayotgan islohotlar davrida erishayotgan yuksak yutuqlarimiz, eng avvalo, milliy davlatchiligimizni mustahkamlash, jamiyat hayotini demokratik anʻana va qadriyatlar bilan yanada boyitib borish orqali xalqimizga munosib turmush darajasini yaratish va ertangi kunga katta umidlar bilan qadam qoʻyish imkonini bermoqda. Xususan, mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida jamiyatning har bir yordamga muhtoj qatlami muammolari yechimini izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi davlat siyosatining muhim yoʻnalishlarida namoyon boʻlmoqda. hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 apreldagi «Ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi boʻlgan, kam taʼminlangan, farzandlarini toʻliqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 285-sonli Qarorida yordamga muhtoj boʻlgan ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga manzilli yordam koʻrsatish, ularni uy-joy bilan taʼminlash choralari belgilangan[1].

Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi «Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-3827-sonli Qarori asosida 61 ta «Zoʻrlik ishlatishdan jabr koʻrgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda oʻz joniga qasd qilishning oldini olish markazlari»ning faoliyatini barcha tuman, shaharlarda 2019 yil I chorak yakuniga qadar yoʻlga qoʻyilishi hamda ushbu markazlar orqali xotin-qizlarga sifatli tibbiy, psixologik va huquqiy yordam koʻrsatilishi belgilab beriladi. Afsuski, Oʻzbekiston ham «shaxslarga nisbatan zoʻravonlik» kabi global muammodan chetda emas. Aynan shuning uchun mazkur maqolada zoʻravonlikka uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilishga doir masalalarga eʼtibor qaratdik [2].

METODOLOGIYA

Zoʻravonlikka uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish dasturlarini tahlil qilishni boshlashdan avval ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya va turli sohalarida reabilitatsiya qanday tushuncha ekanligini bilishimiz kerak. Shundagina biz oʻz izlanishlarimizda suyanadigan fenomenni tanlab olamiz.

Reabilitatsiyani tibbiy-pedagogik va psixologik-pedagogik uslublarining maʼlum tizimi deb hisoblasak, uning natijasida bola rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklarga, ijtimoiy muhitga, jamiyatga moslashishga, tengdoshlari bilan muloqot qilishga, mehnat qilishga, ijtimoiy hayotga oʻzining psixologik, jismoniy layoqatlari doirasida koʻnika oladi va shu orqali oʻzidagi kamchiliklarni yengib, oʻrnatilgan normaga mos boʻla boshlaydi.

Reabilitatsiya tushunchasiga berilgan JSST tomonidan qabul qilingan taʼrifni olsak, bu shunday tizimki, qaysiki unda subyektning (shaxsning) mehnatga layoqatini topishiga qaratilgan bir necha tadbirlar jamlanganligini koʻramiz[3].

Xalqaro mehnat tashkiloti (MOT) reabilitatsiyaga bergan taʼrifga koʻra reabilitatsiyaga bergan taʼrifga koʻra reabilitatsiya sogʻliqni tiklashga qaratilgan tadbir. Shu tadbir natijasida shaxslar oʻzlarining cheklangan psixologik yoki jismoniy imkoniyatlarini yengib oʻtib, kasbiy, psixologik va jismoniy toʻlaqonli shaxsga aylanishlariga qaratilgan [4].

G.Yuldashev va K. Rennerlarning hisoblashlaricha reabilitatsiya bu – turli yoshdagi bemor va nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat va ijtimoiy moslashuvda psixologik, tarbiyaviy, huquqiy, ijtimoiy, davlat tadbirlarida faollashuvlariga olib keladi[5].

Reabilitatsiya o‘ziga xos tizim va o‘zaro bog‘liq tizimni o‘z ichiga oladi:

- Ijtimoiy-psixologik (muloqot muammolari tahlili, munosabat)
- Ijtimoiy-iqtisodiy (sarf xarajatlarni tahlili, iqtisodiy rentabellik va uning me‘yorlari)
- Huquqiy (huquqiy normalar ishlab chiqish)
- Klinik-biologik (gomeostaza muammolarini hal qilish, ko‘nikish kompensatsiya)
- Axloqiy (shirikchilik tamoyiliga asoslangan ijtimoiy xodimning mijoz bilan

muloqotining tahlili).

Reabilitatsiyaning bir necha turlari mavjud: tibbiy, huquqiy, ijtimoiy, psixologik va boshqalar.

Ijtimoiy reabilitatsiya- shaxs va fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat, ijtimoiy va xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan turli tadbirlar tushuniladi. Ijtimoiy reabilitatsiya jamiyat va ma‘lum bir shaxsning o‘zaro hamkorlik jarayoni bo‘lib, u o‘z ichiga shaxsning jamiyat bilan moslashishiga qaratilgan ko‘nikmaga ega bo‘lishi uchun tajriba bilan almashish shu bilan shaxsning ijtimoiylashishiga yordam beruvchi foydali malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishdir.

Tibbiy reabilitatsiya turli tibbiy tadbirlardan iborat. Asosiy maqsad shaxsning nogironlik yoki kasallik natijasida orttirilgan psixologik va jismoniy funksiyalarni tiklashga qaratilgan.

Ehtiyojlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- faol harakatlanish;
- o‘z-o‘ziga xizmat qilish;
- axborotga ega bo‘lish;
- mehnat yoki kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini namoyon qilish;
- erkin harakatlanish;

-sog‘lomlikka ehtiyoj sezish. Reabilitatsiya tanada o‘tkir patologik faza bosqichi yo‘qligida amalga oshiriladi. Shuni ta‘kidlash joizki tibbiy reabilitatsiya boshqa reabilitatsiyalar bilan o‘zviy bog‘liq, ayniqsa iqtisodiy, mehnat, ijtimoiy, psixologik yoki jismoniy reabilitatsiyalar.

Huquqiy reabilitatsiya- shaxsning o‘z huquqini tiklab, huquqiy erkinliklariga ega bo‘lish, nohaq ayblovlarini yo‘qotish, shaxsning yoki guruhning qilmagan jinoyatlarini nohaq ayblashlarini bartaraf etishdan iborat. Huquqiy reabilitatsiya shaxsni nohaq ayblashganini tiklash yoki uning obro‘sini asossiz to‘kishni tiklash avf etishdan farq qiladi.

Psixologik reabilitatsiya – o‘z ichiga profilaktikani, shuningdek ruhiy kasalliklarni davolash, ruhiy-emotsional barqarorlikni tiklash, psixik funksiyalarni avvalgi holatiga keltirish, shaxsda aqliy, ma‘ullikni shakllantirib reabilitatsiya jarayonida faol ishtirok etishni ta‘minlaydi. Psixologik reabilitatsiya shaxsning ruhiy-emotsional barqarorligini va uning turli funksiyalarini tiklash, shuningdek favqulodda hodisalarni bartaraf etishda qatnashayotgan shaxslarning reabilitatsiya jarayonida faol ishtirokini ta‘minlashdan iborat.

Bu bilan biz reabilitatsiyaning tushunchalarini ilmiy jihatlardan ko‘rib chiqib, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, psixologik tomonlariga e‘tibor berdik. Endi reabilitatsiyaning ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy- pedagogik fenomenlarini ilmiy nuqtai nazardan ko‘zdan kechiramiz.

Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya jarayonini ijtimoiy-tarbiyaviy xarakterda qarab chiqamiz, uning natijasida subyektning faol hayotiy pozitsiyasi, bilish malakasi, aqliy kompetensiyasi shakllanib, uning jamiyatga qo‘shilishi osonlashadi. Shu yo‘l bilan shaxs o‘z-o‘ziga xizmat qilishni, ma‘lum bir rollarni bajarishda, ilm olishda kerak bo‘ladigan ko‘nikma, jamiyatda qabul qilingan axloq normalariga amal qilishi shakllanadi.

Shuningdek ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya natijasida shaxsning dunyoqarashi, axloqiy normalarga, qadriyatlarga munosabati o‘zgaradi. O‘ziga va atrofdagilariga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgarib, ijobiy “men” obrazi o‘z-o‘ziga ishonch, hurmat va o‘z qadrini anglashni shakllantiradi.

Ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya psixolog (ruhshunos) yoki psixoterapevt faoliyati orqali amalga oshiriladi. Shuningdek ijtimoiy pedagog yordamida shaxsdagi turli kamchiliklarni yo‘qotib,

uning jamiyatga qo‘shilib ketishini yaqinlashtiriladi. Psixologik-pedagogik reabilitatsiyani amalga oshiruvchi psixolog quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

- Psixologik maslahatlar: individual tartibda va oilaviy;
- Psixologik, neyropsixologik, patopsixologik-tashxis (diagnostika) ;
- Psixologik treninglar;
- Psixologik korreksiya;
- Psixologik profilaktika va maorif;
- Psixoterapevtik yordam (maslahat va korreksiya).

Ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya psixologik jarohat olgan bolaning jamiyatga moslashuvi mexanizmlarini tiklashga qaratilgan tashkiliy jarayon deb qarash mumkin. Bu psixologik jarohatga: ota-onaning vafoti, oila a‘zolaridan birining og‘ir betobligi (kasalligi), oiladagi ajralish, turli zo‘ravonliklar (jismoniy, psixologik, jinsiy, ruhiy) yoki ko‘pol munosabat.

Psixik jarohat olgan shaxslarga hayotning turli jabhalarida bir qancha muammolar yuzaga keladi: tajovuzkorlik, qo‘rquv, o‘ziga nisbatan past nazar, atrofdagilar bilan til topa olmaslik kabi. Bularning hammasi uning jamiyatga qo‘shilib keta olmasligiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib biz psixologik, ijtimoiy, psixologik va ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyalarni ko‘rib chiqdik. Bu reabilitatsiyaning shu qismlarga bo‘lib tadqiqotchilarga psixologik zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar bilan ishlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Psixologik reabilitatsiyaga muhtoj shaxslar jarohat tufayli stressni boshidan kechiradilar. Ular bilan faoliyat olib boradigan xodimlar jiddiy tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishlari, psixologik-pedagogik yondashuvga, psixoterapiyadan malakaga ega bo‘lib, vrach, huquqshunos, psixoterapevt, fiziolog va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishi kerak.

Biz reabilitatsiyaning psixologo-pedagogik mutaxassislar uchun mo‘ljallangan dasturlarini ko‘rib chiqamiz, izlanishlarimiz muammolarining yechimini topish uchun ekzistentsial-gumanistik yo‘nalish art-terapiya mos keladi. Agar ekz-gumanistik yo‘nalishga e‘tibor bersak, u o‘zining asosiy diqqat e‘tiborini turmush muammolariga, hayotning mazmun-mohiyatiga ozodlik, tanlash mas‘uliyatiga o‘zaro muloqotga va yolg‘izlik muammolariga, qisqasi hayotni anglash eng asosiy qadriyat deb hisoblashini ko‘ramiz.

Bu tavsiflar psixologik zo‘ravonlikka uchragan shaxslar uchun muhimdir, chunki ularda hayotga qiziqish so‘ngan, ular o‘zlarini yolg‘iz his etadilar, hech kim bilan muloqoti qilishni xohlamaydilar, ular hayotni “eng oliy ne‘mat sifatida” his qilmaydilar. Rossiya ijtimoiy ish ensiklopediyasida ijtimoiy reabilitatsiya qanday ta‘riflangan: ijtimoiy reabilitatsiya "fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat, xususiy, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmui" degan ta‘rif keltirilgan[6].

Demak, ijtimoiy reabilitatsiya davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan shaxsning ijtimoiy faoliyatini tiklash, uni jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bundan ham xulosa qilishimiz mumkinki, ijtimoiy reabilitatsiya obyektlari og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar, subyektlari esa reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardir:
reabilitatsiya xizmatlarini o‘z vaqtida va bosqichma-bosqich amalga oshirish,
reabilitatsiya tadbirlarining izchilligi va murakkabligi,
reabilitatsiyani amalga oshirishda izchillik va uzluksizlik,
har bir mijozga individual yondashuv,
barcha muhtojlar uchun ijtimoiy va reabilitatsiya yordami mavjudligi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaning maqsadlari – shaxsning ijtimoiy mavqeyini tiklash, ijtimoiy voqelikka moslashish, ijtimoiy va moddiy farovonlikning ma‘lum darajasiga erishish, shuningdek, moddiy va nomoddiy mustaqillikka erishish.

Ijtimoiy reabilitatsiya bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarning asosiy vazifasi mijozning shaxs sifatidagi ijobiy o‘zgarishlarini, shuningdek, mijozning muhitidagi ijobiy o‘zgarishlarni ta‘minlashdir. Ijtimoiy reabilitatsiya jarayonining yo‘nalishlari:

1) Ijtimoiy-psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ta'lim muassasalarida, oilada, ishda homiylik, diagnostika va dolzarb muammolarni hal qilishda maslahat, tashkiliy, muvofiqlashtiruvchi va vositachilik xarakteridagi zarur yordamni ko'rsatish;

2) huquqlar va imtiyozlar, ularni amalga oshirish tartibi, ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni amalga oshirishda yordam berish masalalari bo'yicha axborot berish va maslahat berish, shuningdek ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar to'g'risida xabardor qilish;

3) Ijtimoiy va psixologik yordam va atrof-muhit bilan ishlash, oila va maishiy munosabatlarni psixokorreksiya qilish;

4) Hayotning turli sohalarida ehtiyoj va qiziqishlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish – ishga joylashishda yordam berish, bo'sh vaqtni tashkil etish va boshqalar[7].

E.I.Xolostovanning so'zlariga ko'ra yagona ijtimoiy reabilitatsiyaga faqat reabilitatsiya sohalarini doirasidagi harakatlar kombinatsiyasi natijasida erishish mumkin: yo'qolgan ko'nikmalarni singdirish yoki tiklash, atrof-muhit terapiyasi, bandlik terapiyasi, yangi turmush sharoitlariga psixologik moslashish.

E.I. Xolostovanning so'zlariga ko'ra, faqat ularni amalga oshirish jarayonida shaxsning ijtimoiy faoliyat qobiliyatini haqiqiy va to'liq tiklash mumkin[8].

Reabilitatsiya bir-biriga bog'liq bo'lgan besh bosqichdan iborat. Birinchi bosqich diagnostik va prognostik deb ataladi va mijozning holatini tashxislash, individual reabilitatsiya dasturini tuzishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich – optimal texnologiyalar, ish shakllari va usullarini ishlab chiqish bosqichi.

Uchinchi bosqichda tanlangan ish usullarini amalga oshirish uchun bevosita tayyorgarlik ko'riladi.

To'rtinchi bosqich – amalga oshirish va tuzatish va kompleks nazoratni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Beshinchi bosqichda – ekspert baholash – natijalarni tizimlashtirish, umumlashtirish va nazorat qilish.

Ijtimoiy reabilitatsiya ko'nikmalarni tiklash va rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy maqomni tiklash ijtimoiy reabilitatsiyaning ajralmas qismidir. Ijtimoiy reabilitatsiyaning zaruriy sharti uning turli yo'nalishlaridan foydalanishning murakkabligi bo'lib, huquqbuzarliklarni bartaraf etish bilan birga insonning jamiyatga qaytishiga imkon beradi.

XULOSA

Zo'ravonlikka duchor bo'lgan shaxslar bilan ishlashda zo'ravonlik va travmadan keyingi stress uchun shoshilinch yordam, shuningdek, individual maslahat va guruh ishlari jarayonida uzoq muddatli yordam ko'rsatiladi. Avvalo, oiladagi zo'ravonlikka uchragan ayol xavfsizlikka bo'lgan asosiy ehtiyoji bilan qondiriladi – agar boradigan joyi bo'lmasa, u boshpana bilan ta'minlanadi. Ishonch telefoni orqali shoshilinch psixologik yordam ham ko'rsatiladi. Agar ayolning tajovuzkordan yashirinadigan joyi bo'lsa, unda uzoq muddatli reabilitatsiya rejasi ishlab chiqiladi [9].

Uzoq muddatli reabilitatsiya shaxsiy maslahat bilan boshlanadi. Maslahat davomida oiladagi zo'ravonlik ayolga qanchalik ta'sir qilgani, ayni damda ayol nimaga muhtojligi (hujjatlarni tiklash, ish qidirish va h.k.), ijtimoiy nafaqa olish huquqi bor-yo'qligi, unga qanday psixologik yordam kerakligi aniqlanadi. Keyinchalik, ish rejasi ishlab chiqiladi, sanalar qachon va qaysi mutaxassis ayol bilan ishlashi aniqlanadi. Shaxsiy ish psixolog, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis, advokat bilan uchrashuvlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis shoshilinch iqtisodiy yordam, yuridik va tibbiy xizmatlar ko'rsatishda yordam berish, nafaqa va ijtimoiy nafaqalar olishda maslahat va yordam berish, uy-joy, ish topishda yordam berish va oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lgan boshqa ayollar kabi shoshilinch va har tomonlama ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Shaxsiy ish psixolog, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis, advokat bilan uchrashuvlarni o'z ichiga oladi [10].

Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis shoshilinch iqtisodiy yordam, yuridik va tibbiy xizmatlar ko'rsatishda yordam berish, nafaqa va ijtimoiy nafaqalar olishda maslahat va yordam berish, uy-joy, ish topishda yordam berish va oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lgan boshqa ayollar kabi shoshilinch va har tomonlama ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Ham mijozga, ham uning oilasiga ijtimoiy homiylik qiladi. Psixolog har tomonlama psixologik yordam ko'rsatadi, oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollar

uchun psixokorreksiya va reabilitatsiya kurslarini tashkil qiladi va o'tkazadi, ota-ona va bola munosabatlarini tuzatishga qaratilgan guruh va individual, shuningdek, bolali ayollar uchun treninglar va mashg'ulotlar o'tkazadi va hokazo. Guruh ishlari ham taklif etiladi: treninglar va uchrashuvlar, bir xil muammoga duch kelgan ayollar uchrashadigan o'z-o'ziga yordam guruhlari, hikoyalari bilan bo'lishish. Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun guruh psixoterapevtik texnologiyalari guruhni qo'llab-quvvatlash va ijobiy shaxsiy resurslarni aniqlash orqali psixologik yordam ko'rsatishga qaratilgan. Terapiyalar, masalan, art-terapiya, qum terapiyasi va boshqa turlari amalga oshiriladi. Demak, ijtimoiy reabilitatsiya davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan shaxsning ijtimoiy faoliyatini tiklash, uni jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Ijtimoiy reabilitatsiya ijtimoiy, psixologik, huquqiy yordamni o'z ichiga oladi va uning asosiy maqsadi mijozning oldingi xulq-atvorini rad etish, jamiyatga qaytish va ijtimoiy mavqeyini tiklash, ma'lum darajadagi ijtimoiy va moddiy farovonlik, moddiy mustaqillik, yashash imkoniyati uchun ichki va tashqi resurslarni topish shuningdek, farovonlikka erishishdir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://www.lex.uz/docs/3682704>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштириш, шунингдек, оилавий-маиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 04.07.2018 йилги ПҚ-3827сонли Қарори., дата обращения: <http://lex.uz/22.01.2019>.
3. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/rehabilitation>
4. Дементьева, Н.Ф. Развитие социальной реабилитации в России /Н.Ф. Дементьева. – М., 2002. – С. 4-11.
5. Акатов Л.И. Социальная реабилитация детей с ограниченными возможностями здоровья. Психологические основы: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Л.И. Акатов // Гуманитарный издательский центр «Владос». – Москва. – 2006. – 363 с.
6. Российская энциклопедия социальной работы / [Акимова Ю. А. и др.]; под общей редакцией Е. И. Холостовой. — 2-е издание. – М.: Дашков и К, 2017. – 1030 с
7. Справочник по медико-социальной экспертизе и реабилитации / [Р. М. Войтенко и др.]; Под. ред. М. В. Коробова, В. Г. Помникова. — СПб.: Гиппократ, 2003 (ГИПП Искусство России). – 798 с.
8. Холостова, Е. И. Социальная реабилитация : учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности "Соц. работа" / Е. И. Холостова, Н. Ф. Дементьева. — 3-е изд. — М.: Дашков и К, 2004. – 338 с
9. Гордеева, А. В. Реабилитационная педагогика / А. В. Гордеева. — Москва : Парадигма : Академический Проект, 2005. – 317 с.
10. Ковкова, Т. Г. Технологии социальной работы с женщинами, подвергшимися насилию в семье / Т. Г. Ковкова, И. А. Гизатова. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы II Междунар. науч. конф. (г. Москва, декабрь 2012 г.). — Москва: Буки-Веди, 2012. [Электронный ресурс]. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/65/3178/> (дата обращения: 25.05.2022).

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000